O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 7 - sentabr 223-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 10-avgustdagi 381-10-0-Q/23-son qarorining ijrosi to‘g’risida

Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 10-avgustdagi 381-10-0-Q/23-son qarori ijrosini ta’minlashda, aholi hayoti va sog’lig’i, jismoniy va yuridik shaxslar mulkining ishonchli himoyasini ta’minlaydigan yahlit yong’in xavfsizligi tizimi shakllantirilganligini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g’risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asoslanib, qaror qilaman:

1. Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 10-avgustdagi 381-10-0-Q/23-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent tumani hokimligi, Yong’inlar profilaktikasi samaradorligini oshirish va yong’in xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yuqoridagi qaror bilan quyidagilar inobatga olinsin.

Haftaning har chorshanba kuni “Favqulodda vaziyatlar va yong’inlar profilaktikasi kuni” etib belgilanib, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga bir qator vazifalar yuklatilgan.

Shu bilan birga, yong’inlar profilaktikasi sohasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirayotganligiga qaramasdan, aholining maishiy hayotida va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yong’inlar bilan bog’liq noxush hodisalar ro‘y bermoqda.

Noxush hodisalarning yuzaga kelishi davlat yong’in nazorati bo‘yicha qonunchilikda belgilangan mexanizmlarni qayta ko‘rib chiqish hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining yong’in xavfsizligi madaniyatini oshirishga qaratilgan

qat’iy chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatmoqda.

2023-yil iyul oyida Farg’ona viloyatida joylashgan binoning yerto‘lasida sodir bo‘lgan baxtsiz hodisa sabablarini tekshirish hamda jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha Hukumat komissiyasi (keying o‘rinlarda-Hukumat komissiyasi) tashkil etildi.

Hukumat komissiyasi tomonidan baxtsiz hodisa sabablarini o‘rganish bo‘yicha taqdim qilingan dastlabki xulosa va takliflardan kelib chiqib, shuningdek, aholi hayoti va sog’lig’i, jismoniy va yuridik shaxslar mulkini yong’in xavfidan asrash, yong’inlarning kelib chiqish xavfi yuqori bo‘lgan, birinchi navbatda, aholi ommaviy yig’iladigan obyektlarda yong’inlarning oldini olish samaradorligini tubdan oshirish hamda ushbu yo‘nalishda ta’sirchan nazorat mexanizmlarini joriy etish maqsadida, quyidagilar yong’in xavfsizligi sohasidagi davlat nazoratining asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

aholi va tadbirkorlik subyektlarining yong’indan ogohligini oshirish, yong’in xavfsizligi talablariga amal qilishni rag’batlantirish mehanizmlarini joriy etish, shuningdek, samarali idoraviy yong’in nazoratini ta’minlash;

yong’inlarning oldini olish va kelib chiqish sabablari hamda omillarini barvaqt aniqlash va bartaraf etish, bu borada davlat nazoratini yanada kuchaytirish orqali qonunchilik talablarini buzgan shaxslarga nisbatan javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash;

yong’in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha manzilli chora-tadbirlarni ishlab chiqish, amalga oshirish hamda ularning o‘z vaqtida va so‘zsiz bajarilishi ustidan tizimli monitoring tizimini joriy etish;

davlat yong’in nazorati organlari faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yong’inlarning barvaqt oldini olish.

4. 2023-yil 1-sentabrdan boshlab muntazam ravishda jamoatchilikni keng jalb qilgan holda, “Yong’indan ogohlik” umumilliy kompaniyasini amalga oshirishda, tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (U.Maxamatjonov), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (N.Ubaydullayeva) hamda Nodavlat ta’lim tashkilotlarida yong’inlarning oldini olish va yong’in sodir bo‘lgan vaziyatda harakat qilish bo‘yicha batafsil uslubiy mashg’ulotlar o‘tkazsin.

5. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi tomonidan barcha tashkilotlarda,

tadbirkorlik subyektlarda ish joylarida yong’in xavfsizligi bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish, shu jumladan, evakuatsiya rejalari, o‘t o‘chirish vositalaridan foydalanish qoidalari bilan tanishtirish va yong’in kelib chiqish xavfi bo‘lgan hollardan ogoh bo‘lishi, yong’in xavfsizligi mavzusida seminarlar, ma’ruzalar, mahorat darslari, tanlovlar va taqdimotlar o‘tkazish, aholini tarqatma materiallar bilan ta’minlash choralari ko‘rilsin.

6. Toshkent tumani hokimining axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslaxatchisi matbuot kotibi (D.Ismoilova) internet jahon axborot tarmog’i va ijtimoiy tarmoqlarda yong’inlarning oldini olish va yong’in sodir bo‘lgan vaziyatda harakat qilish bo‘yicha batafsil qo‘llanmalarni tarqatish, shuningdek, mavzu bo‘yicha maxsus sahifalarni tashkil etib, ommaviy axborot vositalarida ushbu mavzudagi maqolalar, intervyular va maxsus ko‘rsatuvlarni yo‘lga qo‘ysin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov va tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig’i U.Maxamatjonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**

Toshkent tuman hokimining
2023-yil 7-sentabrdagi
223-10-212-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Yong’inlar profilaktikasi samaradorligini oshirish va yong’in xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish bo‘yicha

“YO‘L XARITASI”

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	“Yong’indan hushyorlik” umummilliy kompaniyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash.	Chora-tadbirlar rejasi	2023-yil 1-sentabr	Tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov va tuman FVB boshlig’i U.Maxamatjonov
2.	“Yong’in xavfsizligi a’lochisi” yillik tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g’risidagi nizom loyihasini tasdiqlash.	Hukumat qarori loyihasi ishlab chiqish jarayonida taklif kiritish	2023-yil 1-oktabr	Tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov va tuman FVB boshlig’i U.Maxamatjonov